

Transport infratuzilmasi va fuqaro aviatsiyasini rivojlantirish

2025 26 December

Turistlar oqimi tobora oshayotgani aviatsiya va temir yo'lda yo'lovchi tashish quvvatini 2 barobar ko'paytirishni taqozo etmoqda. Shu bois, 2026-yilda aviaparkdagi havo kemalarining soni 120 taga yetkaziladi. Mahalliy aviaqatnovlarni oshirish uchun subsidiyalashning yangi tizimi joriy etiladi. Endi narxidan qat'i nazar, sotilgan har bir chipta uchun aniq miqdorda subsidiya ajratiladi. Bu chipta narxini pasaytirish va talabni oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, yangi samolyotlar uchun uchuvchilar, ularga texnik xizmat ko'rsatuvchilar, aeroportlar uchun servis va boshqaruv sohasida malakali mutaxassislarni tayyorlash maqsadida Fuqaro aviatsiyasi universiteti tashkil etiladi.

Ichki temir yo'llarni rivojlantirish bo'yicha besh yillik dastur qabul qilinadi. Shaharlarni tezyurar poyezdlar qatnovi bilan bog'lash uchun 2026-yildan yana 500 kilometr temir yo'l qurilishi boshlanadi. Kelgusi yili 110 kilometr temir yo'l tarmog'i qurilib, Bo'ka, Piskent, Bekobod, Boyovut tumanlari hamda Nurafshon shahri poytaxt bilan bog'lanadi. "Toshkent – Samarqand" yo'nalishida yuqori tezlikda harakatlanadigan yo'lovchi poyezdlar uchun yangi temir yo'l liniyasini qurish boshlanadi. Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xiva, Navoiydagi vokzallar ham xususiy sheriklik uchun beriladi.